

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA XALQONA MOTIV VA AN'ANALAR IFODASIDA BADIY TILNING O'RNI

Erkinova Nigora Esanovna

Oriental universiteti,

O'zbek va sharq tillari kafedrası dotsent v.b.

Babajanova Matluba Farhadovna

Oriental universiteti Filologiya fakulteti

IF 302 – guruh talabasi

Annotatsiya. Erkin Vohidov she'riyatida xalqona motivlar uning ijodi asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Uning asarlarida xalq hayoti, qadriyatlari, odatlari va qo'shiqlarga xos ohanglar chuqur aks etgan. Bunday motivlar orqali shoir xalqning ruhiyati, dard-u quvonchi, hayotga bo'lgan munosabatini ijodiy tarzda ifoda etgan. Ushbu maqolada yozuvchi badiiy tilning kengligi, uslubiy o'ziga xosligi va xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liqligi misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: she'riyat, lingvopoetika, ijod, badiiy til, xalq og'zaki ijodi, ruhiyat.

Kirish. She'riyatda badiiy tilning o'rni haqida ko'plab adabiyotshunos va tilshunos olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Tadqiqotlarda, asosan, she'riy matnning ma'naviy chuqurligi, o'ziga xosligi va ta'sirchanligini ta'minlashda badiiy tilning rolini tahlil qilganlar. Dunyo adabiyotida hamma davrlarda ham turli adabiy yo'nalishlarda ijod qilgan shoirlar juda ko'p uchraydi.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda 20-asr boshlarigacha saroy adabiy muhitida jarangdor, ko'tarinki ruh beruvchi so'zlarni qo'llab she'r yozish an'anasi mavjud bo'lgan. XIX asr oxiriga kelib, shoirlar ijtimoiy hayot bilan bog'lagan holda she'rlar yoza boshladilar. Natijada xalq tilidagi ohang, so'z va jummalarni she'riyatining asosi deb bilgan ijodkorlar ko'rina boshladi. O'zbek adabiyotida xalqona so'zlar, shevalar, qadimiy va zamonaviy leksik birikmalar keng qo'llanilib, badiiy asarlar tilining boyligi namoyon bo'ladi. Masalan, mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy,

Bobur asarlarida badiiy obrazlarni yaratishda turli she'riy shakllar va uslublar mohirlik bilan qo'llangan.

Asosiy qism

Bizning davrimizga kelib, I. Mirzayev, B. Yo'ldoshev, Z. Shodiyeva, G. Muhammadjonova, M.Yaqubbekova, D. Shadiyeva, M. Yo'ldoshev, G. Jumanazarova, Sh.Toshxo'jayeva, S. Umirova, A. Hamidov, Z. Muqimova va boshqalarning tadqiqotlarida bir qator o'zbek adiblarining nasriy va she'riy asarlari, xalq qo'shiqlari va dostonlarining badiiy-estetik xususiyatlari ochib berildi.(1)

Erkin Vohidov she'riyatida xalqona mazmun ijodining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Shoir she'rlarida xalq hayoti, qadriyatlari, odatlari va qo'shiqlarga xos ohanglar chuqur aks etgan. Bunday motivlar orqali shoir xalqning ruhiyatini, dard-u quvonchini, hayotga bo'lgan munosabatini ijodiy tarzda ifoda etgan. E.Vohidov ijodini qamrab olgan insonparvarlik, tarixni qadrlash, Vatanni sevish kabi ezgu g'oyalar tamoyili o'quvchini beixtiyor she'riy mushohadaga chorlaydi. Shoir ijodining asosiy xususiyatlaridan biri hayot haqiqatini uning barcha murakkab va ziddiyatli tomonlari bilan ifodalash, o'tkir ijtimoiy muammolarni dadil ko'tarish, ma'naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlashdir. O'tgan yillar davomida E.Vohidov ijodini o'rganish, ijodining yangi qirralarning ochilishi tadqiqotchilar diqqat markazida bo'ldi.

O'zbek she'riyatining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan, Erkin Vohidov ijodida biz xalqona motiv va an'analar ifodasini shoir badiiy uslubida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shoir she'rlarida xalq muammosi, quvonch va shodliklari, real va noreal hodisalar birdek o'z aksini topgan. Shoir umuminsoniy qadriyatlarni hammaga tushunarli va sodda tilda bayon etgan.

Odatda, buyuk va iste'dodli ijodkorlarning nafaqat butun ijodi, balki har bir asari o'nlab, yuzlab olimlar tomonidan atroflicha o'rganiladi. Ular birlashganda ajoyib fikrlash tarzi tug'iladi. Undagi har bir gul o'zining rang-barangligi, tarovati bilan bir-biridan mutlaqo farq qilib, qalbga taskin berib, bunyodkor gulzorining rang-barangligini aks ettiruvchi xususiyatga aylanadi.

Erkin Vohidov o‘zining o‘ziga xosligi va serqirraligi bilan benazir. Taniqli olim Qozoqboy Yo‘ldoshev: ”...Tabiatan g‘oyat nazokatli shaxs bo‘lgan Erkin Vohidov adabiyot ixlosmandlari ko‘nglidan nafis va dolg‘ali hamda isyonkor shoir sifatida joy oldi. U shoir bo‘lib shakllanayotgan davrda insonning intim kechinmalari, his- tuyg‘ularini kuylash maqbul sanalmas, adabiyot sovet kishilarini sotsialistik tuzumga qulluq qilish va navbatdagi mehnat g‘alabalariga chorlash bilan shug‘ullanishi kerak degan qarash hukmron edi”, (2) - deya shoirga yuksak baho beradi. Uning ijodini qamrab olgan insonparvarlik, falsafa, tarix bilan bog‘liq ezgu g‘oyalar tamoyili o‘quvchini beixtiyor she‘riy mushohadaga chorlaydi.

Shoir ijodining asosiy xususiyatlaridan biri hayot haqiqatini uning barcha murakkab va ziddiyatli tomonlari bilan ifodalash, o‘tkir ijtimoiy muammolarni dadil ko‘tarish, ma‘naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlashdir.

...Milliy qadriyatlar talqini. She‘riyatda milliy ruh ifodasining eng muhim shartlaridan. Millat mavjudligi va milliy ruh asosi bo‘lgan ona tiliga muhabbat g‘oyasi Erkin Vohidov she‘riyatida o‘ziga xos yuksak o‘rin tutadi. Zamondoshi Abdulla Oripov — Ona tilimga (1965) She‘rida badiiy niyatini bulbul va to‘ti obrazlari orqali ifodalagan bo‘lsa, Erkin Vohidov — Ona tilim o‘lmaydi (1976) she‘rida sho‘rolarning milliy tillar yo‘qolib, faqat bir til qolishi haqidagi safsatasiga javoban Navoiy, Pushkin, Dante, Shiller, Bayron, Firdavsiy, Balzak, Tagor, Xayyom, Beranje, Lorka va Fuzuliy kabi buyuk mutafakkirlar tilidan mana bunday badiiy hukm chiqaradi:

Bu sado yangrar hamon,

Sira ado bo‘lmaydi.

Olam aytar:

Hech qachon

Ona tilim o‘lmaydi! (3)

Shoir she‘riyati XX asr oxiri – XXI asr boshlari lirikasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lsa, adibning ”Nido”, ”Ruhlar isyoni” kabi she‘rlari, ”Oltin devor” komediyasi yuksak badiiy saviyaga egaligi va xalqimiz tomonidan

sevilishi bilan ajralib turadi. E.Vohidov o'zining publitsistik asarlari orqali ko'plab sohalarni bilishi, mumtoz adabiyot, xususan, Navoiy ijodini chuqur o'rganishi, jahon adabiyotidan yaxshi xabardorligini ko'rsatgan.

E.Vohidov she'rlarining xalqona ohangi, ayniqsa, quyidagi she'riy misralarida yorqin ko'zga tashlanadi:

Shoir qalbi go'yo anor,

She'ri uning sharbati.

Bo'lmas ekan she'r ahlining

O'z qalbiga shafqati.

Tinmay ezar, ezar uni

Ammo shoir biladi —

Piyolasi to'lgan kun

Paymonasi to'ladi. ("Shoir qalbi")

Mazkur she'rda shoir ***Paymonasi to'lmoq*** iborasini qo'llab, personajning ichki ruhiy kechinmalarini ifodalashga harakat qiladi, natijada she'rda o'ziga xos ohang yuzaga kelib, matnning ta'sir quvvatini oshirgan.

Yoki:

Dardingni kuyladi anhorlaringda

G'ijirlab aylangan ko'hna charxpalak,

San'ating munaqqash devorlaringda,

Lekin obodliging bo'ldi Hapalak. ("O'zbekiston")

Mazkur parchada qo'llangan *an-hor-la-ring-da, charx-pa-lak; devor-la-ring-da, Ha-pa-lak* so'zlarining o'zaro qofiyalanishi va fonetik jihatdan bo'g'inlardagi tovushlar uyg'unligi orqali she'rda badiiy-estetik vazifa ta'minlangan.

Men na quyoshdirman,

Na oltin qoziq,

O'ltirsam falakning koshonasida.

Peshonamga azal shu ekan yoziq,

Dastyorman samovat korxonasida. ("Zamin sayyorasi")

"Peshonaga yozmoq" iborasi o'zbek tilida taqdir, qismat yoki oldindan belgilangan narsalarni anglatadi. Bu ibora ko'pincha biror voqea

yoki holatni taqdirga bog‘lab tushuntirish uchun ishlatiladi. Mazkur she‘riy parchada keltirilgan ***Peshonamga azal shu ekan yoziq*** iborasi ”Kimga nima peshonasiga yozilgan bo‘lsa, o‘shani ko‘radi” (Har kim o‘z qismatini yashaydi), ”Bu ish peshonamizga yozilgan ekan” (Bu ish taqdirimizda bor ekan) kabi ma’nolarni ifodalab kelgan. Insonning taqdiriga bitilgan yoziq” aloqadorligi *shu* olmoshi orqali ta’kidlangan.

Bu ming yillik hikoyatdir,

Bayon etgan qosidlar.

Tarki dunyo

Saodatdir,

Deb aytdilar zohidlar.

Tiriklikda

Ular o‘lim

Sharobini totdilar.

Bu olamdan ayru bo‘lib,

G‘orga kirib yotdilar. (“Zohidlar va oriflar haqida hikoyat”)

”O‘lim sharobini totmoq” iborasi majoziy ma’noda ishlatiladi va odatda kimningdir o‘limi yoki og‘ir fojiani anglatadi. Bu ibora hayotning oxiri yoki qiyinchilikni sabr bilan qarshi olishni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ko‘pincha adabiy uslubda yoki falsafiy mulohazalarda uchraydi. Ushbu she‘riy parchada ***”Ular o‘lim***

Sharobini totdilar” birligi ”Har bir inson o‘limni tatib ko‘rishi muqarrar”, ”O‘limni qarshi olib, hayotdan ketdi” ma’nolarida ifodalangan. Natijada she’rda bu ibora o‘zgacha poetik vazifa bajargan: kesim vazifasida kelib, badiiy obraz yaratishga xizmat qilgan, shuningdek, she‘riy matnda hissiy ta’sirchanlikni yuzaga keltirgan. Bu ibora badiiy matnlarda falsafiy ifoda sifatida ham talqin qilinadi. Masalan, T.Malik qalamiga mansub ”Murdalar gapirmaydilar” qissasida shunday jumlar keltiriladi: ”Samandar esa shu topda o‘z siriga mahram bo‘la olguvchi odamga hojat sezdi. Ahbobga muhtojlikning qamoq azoblaridan ham battarroq ekanini fahmladi. Odamning fojiasi o‘lim emas, vohidlik ekanini anglab yetmoq mushkul. Odam bolasi istaydimi- yo‘qmi, qochmaydimi yo qochadimi farqsiz — o‘lim sharobini ichadi”. (4)

Misollar ta'kidlab o'tganimizdek, talaygina. Shoirning xalqona motiv va an'analar o'z aksini topgan she'rlarini tez-tez uchratishimiz va har bir satrda bunga guvoh bo'lishimiz mumkin. Erkin Vohidov ijodi davomida buni maromida xalqqa yetkazib bera olgan. Bunda, albatta, u boy o'zbek tilidan samarali va mohirona foydalangan. U, deyarli, hamma tushuna oladigan tildan sodda va bo'yoqdor so'zlarni qo'llay oldi. Bu esa o'z navbatida xalqning yurak-yurakiga tez yetib borishiga turtki bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бутунбаева Т.Замонавий назмий дискурсда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўктам ва Минҳожиддин Мирзо шеърияти мисолида). Филол.фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф.,.

2. Мирзаев И. К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 43 с.;

3. Yo'ldoshev B., Shodiyeva Z. "Ufq" trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari. – Samarqand: SamDU, 2006. – B.62;

4. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири - 90- йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2004. – Б. 25;

5. Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 21; Шадиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 48;

6. Ёўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 160; Shu muallif. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 40; Жуманазарова Г.У. "Ширин билан Шакар" достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 26.

7.Erkin Vohidovning so'z qo'llash mahorati. Respublika onlayn ilmiy amaliy anjumani materiallari. Guliston – 2020.5-b.

8. Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o‘rni. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent – 2022., 51-b.
9. T.Malik. Mordalar gapirmaydilar (qissa). Toshkent- 1998.148-b.
10. Ibragimova Dildora . [Theme and idea in Isajan Sultan's story" Wooden shoes"\("yogoch kovush"\)](#)- Texas Journal of Philology, Culture and History, 2024. 23-25.
11. Turdiyeva, Y. Individuality of the literary style (based on the novel “People in the heat” by Luqmon Borikhan). *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 17-18.
12. Sh, M. (2019). A. Artistic psychologism in uzbek literature of the twentieth century. *Omega science.–Kirov*. M Sh - Omega science.–Kirov, 2019
13. N. Mamajonova. [O‘zbek xalq topishmoqlarida metaforik tamg’ning ifodalanishi](#). - «Acta nuuz», 2025, b. 280-282.